qatorli va sochma o`tkazish usullarida shoda hisobi quyidagicha:

A). O`rta iplari uchun shoda gulalari soni.

$$G_{o`r} = \frac{n_{o`r}}{n_{shodao`r}} = \frac{3234}{2} = 1617[gula]$$

B). qirg`oq iplari uchun shoda gulalari soni.

$$G_{qir} = \frac{n_{qir}}{n_{shodao`r}} = \frac{50}{4} = 12,5 \approx 13[gula]$$

V) Xamma shodadagi gulalar soni

$$G_{qo`sh} = G_{o`r} \cdot P_{shodao`r} + G_{qir} \cdot P_{shodaqir} + G_{qo`shimcha} = 1617 \cdot 2 + 13 \cdot 4 + 4 = 3286[gula]$$

$G_{qo`sh}$ – zoxira gulalar soni (har bir shoda uchun 2 tadan 4 tagacha)

G). shoda kengligi

$$B_{shoda} = B_{t,b} + (1/2 sm)$$

B_{shoda} – butun son ko`rinishida olinsin

(masalan : $B_{shoda} = 120,5$ bo`lsa $B_{shoda} = B_{t,b} + (1/2 sm) = 144,2 + 1,8 = 146$)

$$P_r = \frac{G_{o`r}}{B_{shoda}} = \frac{1617}{146} = 11,075[gula / sm]$$

5. Tanda kuzatgich hisobi.

A) Lamel soni tanda iplari soniga teng.

$$n_L = n_T = 3284$$

B) Lamel zichligi

$$R_L = \frac{n_L}{M_{reyka} \cdot (V_{shoda} + 1)} = \frac{3284}{4 \cdot (146 + 1)} = 5,585 [10m / sm]$$

M_{reyk} -2/6 gacha – lamel reykaları soni

3.4. 100 metr xom to`qima to`qish uchun sarflanadigan iplar sarfi.

A) 100 metr xos to`qima to`qish uchun to`qimani o`rtasiga sarflanadigan tandan iplari og`irligi

$$M_{or} = \frac{n_{or} \cdot T_{or} \cdot (1 - 0.01 \cdot V\%)}{10^6 \cdot (1 - 0.01 \cdot a_T)} \cdot 100 = \frac{3234 \cdot 20 \cdot (1 - 0.01 \cdot 1)}{10^6 \cdot (1 - 0.01 \cdot 6)} \cdot 100 = 6,812 [kg]$$

B) 100 metr xom to`qima to`qish uchun to`qimani qirg`og`iga sarflanadigan tandan iplari og`irligi.

$$M_{qir} = \frac{n_{qir} \cdot T_{qir} \cdot (1 - 0.01 \cdot V\%)}{10^6 \cdot (1 - 0.01 \cdot a_T)} \cdot 100 = \frac{50 \cdot 20 \cdot (1 - 0.01 \cdot 1)}{10^6 \cdot (1 - 0.01 \cdot 6)} \cdot 100 = 0,105 [kg]$$

Yuqoridagilarni hisoblashda oxorlash jarayonidagi tanda uzayishi V% hisobiga olinadi, V % ni miqdori turli iplari uchun quyidagicha:

Eshilmagan (bittali) paxta tolalari uchun – 0.7 % (1 %)

Eshilgan (ikkilangan) - 0,4 %

SHtapel viskoza tolalari uchun – 1,5 %

V) Agar tanda oxorlansa, u xolda qoldiq oxor miqdorini hisobga olib tanda og`irligi hisoblanadi.

$$P_q = 2 / 3 \cdot P_x [\%] = 2 / 3 \cdot 4 = 2,6 [\%]$$

Qoldiq oxor miqdori

P_x – Xaqiqiy oxor miqdori % da

$$M_T = (M_{or} + M_{qir}) \cdot (1 + 0.01 \cdot P_{qol}) = (6.812 + 0,105) \cdot (1 + 0.01 \cdot 2,6) = 7,096 [kg]$$

G) 100 metr xom to`qima uchun sarflanadigan arqoq ipi og`irligi, kg

$$M_{arq} = \frac{P_{ar} \cdot 10 \cdot T_{arq} \cdot L_{arq}}{10^6} \cdot 100 = \frac{22,5 \cdot 10 \cdot 20 \cdot 14,62}{10^6} \cdot 100 = 6,579 [kg]$$

L_{ark} – arqoqni xomuzadagi uzunligi, m da,

$$L_{arq} = B_{t.b} + B_{\kappa} = 144.2 + 2 = 146.2 [m]$$

D. 1 metr xom to`qima og`irligi, kg

$$M_m = \frac{M_T + M_{arq}}{100} = \frac{7,096 + 6,579}{100} = 0,136[kg]$$

E. 1 metr kvadrat xom to`qima og`irligi

$$M_{m^2} = \frac{M_T + M_{arq}}{Bx \cdot 100} = \frac{7,096 + 6,579}{1,323 \cdot 100} = 0,103[kg/m^2]$$

F. To`qimani tola materiallar bilan qoplanishi, % da.

A) Tanda bo`yicha

$$E_T = P_T \cdot d_T \cdot 100 = 2,48 \cdot 0,173 \cdot 100 = 42,9[\%]$$

B) Arqoq bo`yicha

$$E_{arq} = P_{arq} \cdot d_{arq} \cdot 100 = 22,5 \cdot 0,173 \cdot 100 = 38,9[\%]$$

V) To`qimani tashqi qoplanishi

$$E_{to`q} = E_T + E_{arq} - \frac{E_T \cdot E_{arq}}{100} = 42,9 + 38,9 - \frac{42,9 \cdot 38,9}{100} = 65,112[\%]$$

3.5. To`qimani taxtlash hisobini jamlash jadvali

3-jadval


№	Ko`rsatkichlar nomi	SHartli belgi	O`lchov birligi	Ko`rsatkichi
1	To`qimani bog`lanish koeffitsienti	S	-	5,48
2	O`rilish koeffitsienti	F	-	2
3	To`qimani to`ldirilish koeffitsienti	$K_{To`q}$	-	0,667
4	To`qimani tanda iplari bilan to`ldirilishi	K_{Tan}	-	0,858
5	To`qimani arqoq iplari bilan to`ldirilishi	K_{Arq}	-	0,778
6	To`qimadagi iplarning o`rtacha chiziqli zichligi	$T_{o`r}$	teks	20
7	To`quv dastgohi rusumi	1500	mm	Tayota

8	To`qima kengligi	Tayyor to`qima	B_t	sm	130
		Xom to`qima	B_x	sm	132,396
		To`qima o`rtasi	$B_{o`r}$	sm	130,396
		To`qima milki	B_m	sm	2.0
9	Tanda iplarini tig` bo`yicha taxtlash kengligi		$B_{t.tig`}$	sm	144,2
10	To`qima uchun ztanda iplari soni		n_t	dona	3234
11	Umumiy tanda iplari soni		n_{umum}	dona	3284
12	Tig` nomeri		$N_{Tig`}$	Tish/sm	12
13	Tig` tishlari soni		X	dona	1630
14	SHodadagi gulalar soni		G_{um}	dona	3286
15	Tanda kuzatkichlar soni		$n_{T.K.}$	dona	3284
16	Tanda kuzatkichlar zichligi		$P_{T.K.}$	t.k./sm	5,585
17	100 m xom to`qima uchun ip sarfi:		$M_{T.T}$	kg	7.096
	a) tanda iplari uchun		M_{Ar}		6.579
	b) arqoq iplari uchun				
18	1 m xom to`qima og`irligi		$M_{pog.m}$	kg	0.136
19	1m ² xom to`qima og`irligi		M_m^2	kg	0.103
20	To`qima yuzasini tolali materiallar bilan qoplanishi:		$E_{To`q}$	%	65.112
	a) Tanda bo`yicha		E_T		42.9
	b) Arqoq bo`yicha		E_A		38.9

3.6 Ishlab chiqarish texnologik jihozlarni tanlash

Ip gazlama to`qimalarini to`qishni texnologik jaryoni

4-jadval



1. Tandalash mashinasi va romini tanlash va izohlash

Tandalash jarayoni izoxlash xisob bilan belgilangan tanda iplari bir xil uzunlikda va ma`lum taranglikda bitta o`rama jamlab olishdan iborat. Tandalash mashinalar tandalash usullariga ko`ra bir-biridan farq qiladi. Biz loyixa qilayotgan tandalash texnologik jarayon uchun guruxlab tandalash mashinalari qo`llanadi.

Loyixada qabul qilingan boshqa guruxlab tandalash mashinalaridan ip tanda tezligining yuqoriligi bilan farq qiladi.

Iplarni tandalashdan maqsad - ma`lum uzunlikdagi xisob bilan aniqlangan iplar sonini jamlab bitta o`rama, tandalash g`altagi yoki to`quv g`altagiga o`zaro parallel qilib o`rashdan iborat.

Tandalash jarayonida to`qimaning tandasi shakllanadi. Texnologik nuqtai nazardan tandalash jarayoni muxim va ma`suliyatli bo`lib, unda bir paytning o`zida bir necha yuz iplardan bitta o`rama olinadi.

Guruxlab tandalashda tandadagi jami iplar bir gurux tanda g`altaklariga teng taqsimlanib ma`lum uzunlikda tanda g`altagiga o`raladi. So`ngra tanda g`altaklaridan tuzilgan gurux oxorlash mashinalariga keltiriladi. Xar bir tanda g`altagidagi iplar uzunligi bir nechta to`quv g`altagidagi iplarning uzunligiga teng bo`ladi.

Sanoatda Rossiyaning SP-140, SP-180, Shvetsariyaning ZS-R, Ben-DIREKT “Beninger”firmasi ,AKShning DW, Chexiyaning Kovo kabi guruxlab tandalash mashinalari keng tarqalgan. Bitiruv malaka ishimizda Shveytsariyaning “Beninger” rusumli guruxlab tandalash mashinasini qabul qildik. Bu mashinalar o`zining yuqori enda (2200-4200) sifatli tanda g`altaklarini tayyorlashi bilan birga tandalash tezligi tandalanayotgan ipning chiziqli zichligiga mos ravishda o`zgartirish oralig`ining kengligi bilan xam ajralib turadi. Bu mashinalarga mos ravishda tanda romlari qabul qilindi va texnik ko`rsatkichlari keltirildi.

Beninger ZC-R tandalash mashinasining texnik xarakteristikasi.

Tandalash mashinasi

5-jadval

№	BENINGER ZC-R	O`lchov birligi	Ko`rsatkichi
1	Mashinaning ishchi eni	Mm	1200-2200
2	Tandalash tezligi	m/min	1200
3	Gardish ogirligi	Gr	1200-2200
4	Gardish diametiri	Mm	1000
5	Uzak diametiri	Mm	300
6	Elektr yuritkich kuvuti	Kvt	18,5

7	Kengligi	Mm	1775
	Uzunligi	Mm	3910
	Balandligi	mm	2325

Tandalash jarayoni ko'rsatkichlari

6- jadval

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Qiymati
1	Tandalanayotgan ipni chiziqliy zichligi	Teks	20
2	Tandala tezligi	m/min	800
3	O'ramning nisbiy zichligi	Gr/sm ³	0,5
4	Davra ramkasi sig'imi	Dona	480
5	Davra g'altagidagi ipning uzunligi	M	53033.235
6	Davra g'altagidagi ipning xajmi	Sm ³	100193.475
7	Davra g'altagidagi ipning og'irligi	Kg.	551.064
8	Davra g'altagidagi ipning maksimal uzunligi	M	58623.829
9	Davra g'altagidagi ip soni	Dona	470
10	Babinadagi ip og'irligi	Gr.	3142.794
11	Babinadagi ip uzunligi	M.	2348.953

Tanda romni texnik ko'rsatkichlari

7-jadval

№	GAAS	O'lchov birligi	Ko'rsatkichi
1	Romning sig'imi Ishchi babina	dona	480
2	Romdagi babina o'lchami O`ram Balandligi	Mm mm	255 150
3	Romning ulchami Uzunligi Kengligi Balandligi	Mm Mm mm	131100 2990 3070

Oxorlash mashinasini tanlash va izoxlash

Oxorlash bo'limida oxor tayyorlash va oxorlash uskunalari bo'lishi lozim. Oxorlash jarayonida tanda iplarini ustki qismini silliqlash pishiqligini oshirish va iplarni uzulishini kamaytirish maqsadida oxor(elim)lanadi.

Tanda iplari davra g'altigidan yechilib,elim vanasida yelimlanadi,maxsus valiklar yordamida siqilib,quritish zonasida ,quritish barabanlari yordamida quritiladi va to'quv g'altigiga o'raladi.

Xozirgi vaqtda korxonalarda MShB-9-140, MShB-11-140 va MShB-9-180, MShB-11-180 turdagi oxorlash mashinalari qullaniladi.

Oxorlash mashinasini tanlash to'quv g'altigidagi iplarni soniga ,xom to'qimani kengligiga,ipni chiziqliy zichligiga bog'liq bo'ladi.

Bu ko'rsatkichlarni xisobga olgan xolda berilgan ipni oxorlash uchun

Ben-FILATEK "Beninger"firmasini oxorlash mashinasini qabul qilindi.

Ben-FILATEK "Beninger"firmasi oxorlash mashinasining texnik ta rifi.

8- jadval

No	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	qiymati
1	Taxtlash kenglishi	Mm	2800
2	Tanda iplarini xarakat tezligi	m/min	500
3	Tanda ipipni taxtlash uzunligi Mashinada tirgaksiz Quritish oralig'ida	M	33
		M	18
4	Vanadagi oxor miqdori	Litr	700
5	Oxormaterialaning issiqlik darajasi	S°	90
6	Mashinaning bo'g'lanish qobiliyati	Kg. Soat	300-450
7	Mashinaning o'lchamlari:		
	Kengligi	Mm	2860
	Tirgakni xisobga olgan uzunligi	Mm	18135
	Balandligi	Mm	3200
	Tirgakni xisobga olmagan uzunligi	Mm	19720
8	Mashinaning og'irligi	Kg	18260
9	Elektrodvigatel quvvati	KVT	20,5

10	To'quv g'altagiga tandani o'rash zichligi	Gr.sm ³	0,5
----	---	--------------------	-----

Oxorlash jarayoni ko'rsatkichlari

9- jadval

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	qiymati
1	Oxorlanayotgan ipni yo'g'onligi	Teks	20
2	Oxorlashning yuqori tezligi	M.min	126,877
3	Oxorlashda tandani cho'zilishi	%	4
4	Oxorlanayotgan iplar soni	Dona	3284
5	To'quv g'altagidagi ipni og'irligi	Kg	574,298
6	Gruxdagi tanda g'altaklar soni	Dona	7
7	Bitta guruxdan olinayotgan tuquv g'altaklar soni	Dona	6
8	O'rtacha tezligi	M.min	87,07
9	To'quv g'altagi o'rami nisbiy zichligi	Gr.sm ³	0,5

Oxorlrsh mashinasining yuqori tezligi.

$$U_{mak} = \frac{Q \cdot 10^6}{a \cdot n_T \cdot T_T \cdot 60} = \frac{400 \times 10^6}{0,8 \times 3284 \times 20 \times 60} = 126,877 \text{ m/min}$$

Q-mashinani bug'lanish qobiliyati. (300-450 kg.)

a- tanda ipi namligini xisobga oluvchi koeffitsient, q0,8

$$a = \frac{W_1 - W_2}{100} = \left[\frac{kg}{soat} \right] \quad a = \frac{90 - 10}{100} = 0,8 \left[\frac{kg}{soat} \right]$$

W₁ – tanda ipini siqishdan keyingi namligi.(80-90)

W₂ – tanda ipini quritishdan keyingi namligi.(10-12)

n_t-tanda iplarini umumiy soni

T_t-tanda ipi chizikli zichligi (teks)

1. Ulash mashinalari tanlash va izoxlash

Ulash yoki o'tkazish texnologik jarayoni oxorlash jarayonidan chiqqan to'quv g'altagidagi tanda iplarini to'quv dastgoxiga taxtlash bo'lib, bu jarayonlar xam boshqa texnologik jarayonlar kabi o'ta ma'suliyatli xisoblanadi. Bu jarayonlarda qilingan xato va kamchiliklar jarayon tugab, to'quvchilik jarayoni boshlanganda, ya'ni to'qima shakllanayotgan vaqtda uning sirtida o'z aksini topadi. Shuning uchun bu jarayonda ishlatiladigan mashina va dastgoxlar, ularga xizmat ko'rsatadigan ishchilar yuqori malaka va tajribaga ega bo'lishilari talab etiladi.

Ip ulash-to'quv g'altagidagiga maxsulot ip tugasa yangi ipga ulash jarayoniga aytiladi.

Germaniyaning AWA-2 mashinasi xamma turdagi iplarni bog'lash imkoniyatiga ega bo'lib, 2÷200 teksli iplarni xech qanday sozlashsiz bog'laydi. Bunday mashinalar statsionar va qo'zg'aluvchan bo'lishi mumkin.

Ip bog'lash tezligini zamonaviy ip bog'lash mashinalarida 400-500 iplarni minutiga bog'lab ishlatish mumkin. Mashina igna yoki toqavay usulida iplarni ajratishi mumkin.

Iplarni jixozlashdan o'tkazilmaydigan xollarda tugayotgan iplarning oxirgi uchlari bilan yangi olib kelingan tanda iplarining uchi bog'lanadi. Ip bog'lash mashinalari qo'zg'almas bir joyda o'rnatilgan, xarakatlanuvchi va unversal turlari mavjud. Men loyixada Staubli Delta 200, Staubli Tomatik (Shvettsiya) ip bog'lash mashinasini kabul qilindi.

Tomatik ulash mashinasining texnik ta rifi.

10- jadval

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'dchov birligi	qiymati
1	Mashinani ishsi kengligi	Mm	1750
2	Ulash tezligi	Ul.min.	500
3	Ulanadigan tanda iplari chiziqliy zichligi	Teks	8,5-500
4	Istemol qilinadigan elektr energiya	Vt.soat	10
5	Gabarit o'lchamlari:		
	Uzunligi	Mm	500
	Balandligi	Mm	2123
6	Og'irligi karetk bilan	Kg	335

7	Og'irligi karetkasiz	Kg	16
8	Elektrodaigatel quvvati	KVT	0,1

Ulash jarayoni ko'rsatkichlari.

11- jadval

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'dchov birligi	qiymati
1	O'lanayotgan ipni chiziqiy zichligi	Teks	20
2	Ulash tezligi	Ul.min	500
3	Tanda iplarining umumiy soni	Dona	3284
4	O'rta iplar soni	Dona	3234
5	Qirg'oq iplari soni	Dona	50
6	To'qimani tig' bo'yicha taxtlash kengligi	Sm	144.2
7	To'qimani o'rtasi kengligi	Sm	130.396
8	To'qima qirg'og'i kengligi	Sm	2,0
9	Hom to'qima kengligi	Sm	132.396

O'tkazish jarayonini tanlash va izoxlash.

O'tkazish bu tuquv dastgoxining yechiluvchi qismlaridan (tanda kuzatgich gula va tig'lardan) tanda iplarini belgilangan ketma ketlikda olib o'tishda aytiladi. PSM markali mexanizatsiyalashgan o'tkazish dastgoxi taxtlash kengligi bo'yicha farq qiluvchi 4 xil PSM- 140,PSM -175,PSM- 230 va

PSM- 250 kabi turidagilar mavjud. PS, PSM rusumidagi o'tkazish dastgoxlarida ikkita ishchi ishlaydi, biri uzatuvchi, biri o'tkazuvchi vazifasini bajaradi.

Sanoatda Rossiyaning PS, PSM rusumidagi, AQShning Barber-Kolman, Staubli Delta 200, Staubli Warplink kabi o'tkazish dastgox va avtomatlari mavjud.

Bu dastgoxda tanda iplarini gula va tig'lardan xatosiz o'tkazishni ta'minlaydi. O'tkazish jarayonini amalga oshirish uchun to'qimani to'qishga Warplink mexanizatsiyalashgan o'tkazish dastgoxini tanladim.

WARPLINK o'tkazish dastgoxini texnik xarakteristikasi

12- jadval

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	qiymati
1	Eng katta taxtlash mumkin bo'lgan ishchi kenglik	mm	1750

2	O'rnatilishi mumkin bo'lgan eng eng ko'p shodalar soni	Dona	12
3	Eng ko'p o'rnatilishi mumkin bo'lgan tanda kursatkichlar soni	Dona	2-6
4	1minutdagi shodalar khirsatkichlar soni	shoda/min	11-12
5	Dastgox o'lchamlari: Kenglig Uzunligi Balandligi Og'irligi	mm Kg	mm 1680 2800 1780

To'quv dastgoxlarini tanlash va izoxlash.

Pnevmatik to'quv dastgoxda arqoq ipi xavo bosimi yordamida yuboriladi. Bunday dastgoxlar asosan Bel giya, Germaniya, Chexiya, Yaponiya, Gollandiya va Hvettsiyalarda va ishlab chiqariladi.

Italiyani Wamatex rusumli dastgohi ham elastik rapira yordamida arqoq ipini homuzaga tashlaydi. Karetkali va jakkard homuza xosil qilish mexanizmlari bilan jihozlanish imkoniyatiga ega. Tanda iplarini taranglab uzatish mexanizmi Xanta rostlagishidir.

TAYOTA to'quv dastgoxini texnik xarakteristikasi

13- jadval

№	Ta'rif elementlari	O'lchov birligi	ko'rsatkichi
1	Ishchi eni.	Mm	1500,1900
2	Bosh valning aylanish soni	min ⁻¹	500,420,380
3	To'quv g'altagi o'lchami Gardish diametri O'zak diametri	Mm	1000 150
4	To'qima valigi diametiri	Mm	120
5	To'qima urami diametiri	Mm	520
6	SHodalar soni O'rtadagi iplar uchun	Dona	8 2

	Milk iplari uchun		
7	Gabarit o'lchami Uzunligi Kengligi Balandligi		2570,2900,3800 1785 1346
	Elektr yuritgich quvvati	kVt	1,0

To'quv jarayoni ko'rsatkichlari

14- jadval

№	Ko'rsatkich nomi	o'lchov birligi	qiymati
1	Ishchi eni.	Mm	1500
2	Bosh valning aylanish soni	min ⁻¹	500
3	Ip chiziqli zichligi	Teks	20
4	Tanda iplarining umumiy soni	Dona	3284
5	O'rta iplar soni	Dona	3234
6	Qirg'oq iplari soni	Dona	50
7	To'qimani tig' bo'yicha taxtlash kengligi	Sm	144.2
8	To'qimani o'rtasi kengligi	Sm	130.396
9	To'qima qirg'og'i kengligi	Sm	2.0
10	Hom to'qima kengligi	Sm	132.396

To'qimani saralash, o'lchash va tozalash mashinalarini tanlash va izoxlash.

To'quv dastgoxlarida to'qilgan xom to'qima xisoblash-navlarga ajratish bo'limiga yuboriladi. Bu yerda u navlarga ajratiladi, o'lchanadi, tozalanadi va pardoqlash bo'limiga jo'natish uchun tayyorlanadi. Xom ip to'qimasining sifati (navi) davlat standartlari asosida tekshiriladi va baxolanadi.

To'qimalar sifati ularning fizik-mexanik xossalari normalarga mos kelishiga va tashqi ko'rinishidagi nuqsonlarga qarab baxolanadi. Bunda to'qimalarning ikki navi (birinchi va ikkinchi) belgilanadi.

To'qimalarning tashqi ko'rinishidagi nuqsonlar gazlamaning ma'lum cheklangan joylaridagi nuqsonlarga (dog'lar, siyraklik chala o'rinish, zichlashgan joylar) va butun gazlama to'piga yoyilgan nuqsonlarga (kirlanganlik, yo'l-yo'llik, xar xil tushilik) bo'linadi.

To'qima sifatini baxolash, ya'ni navini aniqlashda balli sistemadan foydalaniladi va u fizik-mexanik xossalari xamda tashqi ko'rinishidagi nuqsonlar bo'yicha ballarning umumiy yig'indisi bilan aniqlanadi.

To'qima nuqsonlarini tekshirish va to'qima uzunligini o'lchash uchun tekshirish va xisoblash bo'limlarida saralash mashinalardan foydalaniladi. Bu mashinalar tekshirish stoli bilan ta'minlangan, va to'qima enini o'lchash uchun metall chizg'ich o'rnatilgan, xamda tekshirish stoliga xira oyna qo'yilgan bo'lib, ichki tomonidan yoritiladi, bu tekshirishni yyengillashtiradi. Stol qiyaligini 30° gacha burchakka o'zgartirish mumkin.

Bitiruv malaka ishimizda xozirgi vaqtda ishlatilaniyotgan o'lchov mashinasi olindi, shunindek saralash, tozalash va tarashlash mashinalari mavjud bo'lib ular xam loyixamizda qabul qilindi.

Sifat nazorat bo'limida Stema mashinasini texnik ko'rsatkichlari

15- jadval

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	qiymati
1.	Ishchi eni	mm	1600-2000
2.	Matoni taxtlash uzunligi	mm	900-1000
3.	To'qima tezligi	m/min	50
4.	Gabarit o'lchamlari: a) kengligi	mm	2600

	b) uzunligi		12960
	v) balandligi		1370
5.	Elektr yuritgich quvvati	kVt	0,8

3.7 Ip o'ramlarini xisoblash va asoslash

O'ram g'altagini tanlashda o'lcham, eng katta o'ram g'altaklarni ish jarayonida mexnat unumdorligini, dastgox unumdorligini oshiribgina qolmay chiqindi kamayishiga xam olib keladi. O'ram g'altaklarini o'lchamini tanlashda ip turiga karaladi (masalan : ipni kelib chikishi : tabiiy, sun`iy va xokazo, ip kalinligi) va texnologik jarayondagi dastgoxlar turiga e`tibor beriladi va xokazo.

O'ram g'altaklarini sg'implarini xisoblashda xar bir jarayonda qabul qilingan parametrlardan foydalaniladi. O'ram g'altagini o'lchamlarini tanlash ish jarayonida mexnat va dastgox unumdorligini oshiribgina qolmay chiqindi kamayishiga xam olib keladi. Faltak o'ramlari o'lchamini tanlashda ip turiga, ya`ni tolaviy tarkibi, uning chiziqli zichligiga va texnologik jarayondagi dastgoxlar turiga ahamiyat beriladi.

G'altak o'ramlari sig'implarini xisoblashda xar bir jarayonda qabul qilingan parametrlardan foydalaniladi.


O'ramlar xisobida bobina tandalash galtagi to'quv galtagi va boshqa o'ramlarning muvofiq uzunlikni aniqlashdan maqsad shu iplardan chiqindiga chiqadigan uzunlikni kamaytirish sarflanayotgan iplar uzunlikni to'quv dastgoxida to'qilayotgan to'qima bo'lagi uzunligiga moslashtirish xamda uskunalarining texnik tavsifida ko'rsatilgan o'ramlar o'lchamlarini xisobga olgan xolda ularning maksimal xajm, vazni va iplarning uzunliklarni aniqlash .

O'ramada iplarning uzunligini qancha katta bo'lsa ularga ishlatiladigan mashinalarning unumdorliklari shuncha yuqori bo'ladi. Shuning uchun avvalo o'ramlardagi iplarning xajmi va vazniga qarab, ularning maksimal uzunliklarini topiladi.

O'ramdagi iplarning uzunliklari nafaqat mashina unumdorligiga ta'sir etadi, ular shuningdek maxsulot sifatiga vayniqsa, texnologik jarayonlardagi chiqindilar miqdoriga xam ta'sir etadi. O'ramadagi iplarning muvofiq uzunliklarini to'g'ri aniqlash bevosita chiqindilar miqdorini aniqlaydi.

O'ramlar xisobini to'qima ishlab chiqarish texnologik jarayoniga teskari tartibda bajariladi, ya'ni, to'quv g'altagi, tanda g'altagi, qayta o'rash mashinasidan olingan bobinalar xisoblanadi.

1. To'quv dastgoxi g'altagi.



Xisoblash uchun kerak bo'lgan o'lchamlar.

1. D_g – g'altak diskini diametri, -1000mm.
2. d_n – g'altak stvolini diametri -150mm.
3. $D_{o'r}$ – g'altakdagi ip o'rami diametri-970 mm.
4. H – disklar oraligi-1500 mm.

$$D_{o'r} = D_g - (20/30) = 1000 - 3 = 997 \text{ mm}$$

1. To'quv dastgoxi oxorlangan ip xajmi

$$V = \frac{\pi \cdot H}{4} \cdot (D_{o'r}^2 - d_n^2) = \frac{3,14 \cdot 1500}{4} \cdot (997^2 - 150^2) = 1081,416 [sm^3]$$

2. To'quv g'altadagi oxorlangan ip og'irligi.

$$G_{ox} = \frac{V \cdot \gamma}{1000} = \frac{1081,416 \cdot 0,55}{1000} = 594,778 [kg]$$

γ - g'altadagi ip o'ramini nisbiy zichligi gr/sm^3 .

3. g'altakdagi yumshoq ya'ni oxorlanmagan ip yoki tola og'irligi

$$= \frac{594,778}{1 + 0,01 \cdot 2,5} = 580,2 [kg]$$

$$G_{yum} = \frac{G_{ox}}{1 + 0.01 \cdot P_{xak}}$$

P_{xak} – oxorni ipga xaqiqiy singish miqdori, protsent (oxorlash parametriga karang)

4. To`quv g`altagiga o`rash mumkin bo`lgan eng yuqori ip uzunligi.

$$L_{\text{to`q.gal}}^{\text{yuqori}} = \frac{G_{yum} \cdot 10^6}{T_T \cdot n_T \cdot (1 - 0.01 \cdot V\%)} = \frac{580,2 \cdot 10^6}{20 \cdot 3284 \cdot (1 - 0.01 \cdot 4)} = 9201.811[m]$$

T – tanda ipini qalinligi (teks)

n – g`altakdagi tanda iplarini soni.

$V\%$ - oxorlashda tandani uzayishi miqdori, protsent.

5. To`quv g`altakdagi tanda ipini muvofiq (foydali) uzunligini hisoblash. Bir to`quv g`altagidagi tanda uzunligidan bir necha butun to`qima bo`laklarini olish kerak. Har bir bo`lak to`qimani uzunligi 18 metrdan 150 metrgacha bo`lishi mumkin. Bu asosan to`qima tuzilishiga bog`liq.

Masalan: paxtada to`qilgan to`qimalarda ko`p xollarda bir bo`lak 50 metrga teng deb olinadi.

A) Bir bo`lak to`qima to`qish uchun sarflanadigan tanda ipini uzunligini hisoblash.

$$L_T = l_{xom} \cdot \frac{1}{1 - \frac{a_t}{100}} = 50 \cdot \frac{1}{1 - \frac{6}{100}} = 53,191[m]$$

L_{xom} – bir bo`lak to`qima uzunligi

a_t – to`quvchilikda o`rilish hisobidagi tanda iplarini qisarish miqdori % da.

B) Bitta to`quv g`altagidan chiqadigan to`qima rulonlar soni.

$$K_R^1 = \frac{L_{\text{to`q.gal}}^{\text{yuqori}}}{P \cdot L_T} = \frac{9201.811}{2.1 \cdot 53,191} = 82,378 \approx 83 \text{ dona}$$

$P=2$ yoki 3 , - bitta rulondagi to`qima bo`laklari soni

V) g`altakdagi tanda iplarini foydali uzunligi.

$$L_{\text{myk.gaz}}^{\text{moysof}} = K_p \cdot \Pi \cdot L_T + l_{ym} + l_{myk} [m] = 83 \cdot 2 \cdot 53,191 + 0.5 + 2.0 = 8832,206 \text{ m}$$

$L_{o't}$ – o'tkazish jarayonidagi tanda iplarini chiqindiga chiqib ketadigan uzunligi. $L_{o't} = 0.5/0.8 \text{ m}$

$L_{to'q}$ – to'quv dastgoxi va to'quv g'altagida keladigan tanda iplarini uzunligi m $L_{to'q} = 2,0/3,0 \text{ m}$

Xisoblash sharti ya'ni muvofiq (foydali) uzunlik eng yuqori uzunlikdan kam bo'lishi shart.


$$L_{to'q,gal}^{yuqori} > L_{to'q,gal}^{Muvof} [m] \quad 9201,811 > 8832,206$$

G) To'quv g'altagidagi tandani xaqiqiy og'irligi.

$$G_{xak} = \frac{L_{to'q,gal}^{Muvof} \cdot n_T \cdot T_T \cdot (1 - 0.01 \cdot V\%)}{10^6} = \frac{8832,206 \cdot 3284 \cdot 20 \cdot (1 - 0.01 \cdot 1)}{10^6} = 574,298 \text{ kg}$$

Ipak tolalaridan olinadigan tanda iplarini to'quv g'altagiga o'rashda fartuk ishlatiladi. Bu fartuk ko'p ko'rinishida tayyorlanib, g'altak stvoliga kiydirib ko'yiladi va bunga tanda ipi ulanadi. Bu xolatlarda tanda ipi 1,5/2 metr uzunlikda g'altakda qoladi, ya'ni to'qima cheti (yoqasi) va tanda nazoratchisi oralig'ida.

2. Tandalash (Tandakashlash) valigi.



D_n – Tanda g'altagi o'qining yog'onligi-300 (mm)

D_g – Tanda g'altagi diskini diametri-1000 (mm)

H – Tanda g'altagi disklari orasidagi masofa-1500 (mm)

1. Tanda g'altagidagi ipning xajmi.

$$D_{o'r} = D_g - (2/3) = 100 - 30 = 97 \text{ sm}$$

$$V = \frac{\pi \cdot H}{4} \cdot (D_{o'r}^2 - d_{o'r}^2) = \frac{3,14 \cdot 150}{4} \cdot (97^2 - 30^2) = 100193,475 [\text{sm}^3]$$

2. Tanda g`altagidagi ipning og`irligi.

$$G = \frac{V \cdot \gamma}{1000} = \frac{100193,75 \cdot 0,55}{1000} = 551,064 \text{ kg}$$

Bu yerda γ - Tanda g`altagiga o`ralayotgan ipning nisbiy zichligi, (Tandalash parametrlariga qarang).

3. Tanda g`altagiga sig`ishi mumkin bo`lgan ipning uzunligi.

$$L_{dav.g'al}^{yuqori} = \frac{G \cdot 10^6}{T_t \cdot M_g} = \frac{551,064 \cdot 10^6}{20 \cdot 470} = 58623,829 [m]$$

Bu yerda : G – Tanda g`altagidagi ipning og`irligi kg

T_t – tanda ipning chiziqli zichligi teks

M_g – Tanda g`altagidagi iplar soni dona

a) guruhdagi tanda g`altaklari soni :

$$K_{d.g}^1 = \frac{n_T}{P_{sh}} = \frac{3284}{480} = 6,84 \approx 7 [dona]$$

n_T – to`quv g`altagidagi iplar soni, dona

P_{sh} – Tanda ramkasini sig`imi, dona

Olingan K_{dg} qiymati katta tomoniga butun songa butunlaymiz va K_{dg} bilan belgilaymiz.

b) Tanda g`altagidagi tanda iplari soni, dona

$$M_g = \frac{n_T}{K_{d.g}} = \frac{3284}{7} = 469,142 \approx 470 [dona]$$

M_g – qiymati butun son bo`lishi kerak.

4. Tanda g`altagidagi ip uzunligi bilan to`quv g`altagidagi ip uzunligi orasidagi muvofiq (foydasi) uzunligi hisobi.

a) Bir guruh Tanda g`altagida olinadigan to`quv g`altaklar soni

$$K_{T.G} = \frac{L_{dav.g'al}^{yuqori}}{L_{to`q.g'al}^{Muvof}} = \frac{58623,829}{8832,206} = 6,63 \approx 6 [dona]$$

$L_{dav.g'al}^{yuqori}$ - Tanda g`altagidagi sig`ishi mumkin bo`lgan ipning uzunligi, m

$L_{to`q.g'al}^{Muvof}$  - to`quv g`altagidagi ipning muvofiq uzunligi, metr

b) Tanda g`altagidagi ipning dastlabki muvofiq uzunligi, metr

$$L_{dav.g'al}^{Muvof} = L_{to`q.g'al}^{Muvof} \cdot K_{T.G'} + U_{oxor} = 8832,206 \cdot 6 + 39,999 = 53033.235[m]$$

U_{oxor} – oxorlash jarayonida chiqadigan chiqindi, metr

$$U_{oxop} = l_1 + l_2 \cdot \left(\frac{K_{d.G'} - 1}{K_{d.G'}} \right) = 33 + 15 \cdot \left(\frac{6 - 1}{6} \right) = 39,999[m]$$

l_1 – yelimlangan (oxorlangan) ip uchlari uzunligi, metr $l_1 = 42/33$

l_2 – Tanda g`altagidagi qoladigan yumshoq oxorlanmagan iplarning o`rtacha uzunligi, metr $l_2 = 15/20$

V) Tanda g`altagidagi ipni xaqiqiy foydali uzunligi, metr (oxorlash jarayonidagi iplarni uzayishini hisobga olgan xolda).

$$L_{dav.g'al}^{Muvof} = \frac{L_{dav.g'al}^{Muvof}}{1 - 0.01 \cdot V\%} = \frac{53033,235}{1 - 0.01 \cdot 1} = 53568,924[m]$$

$V\%$ -oxorlash jarayonidagi iplarni uzayishi, % (oxorlash ko`rsatkichiga qarang).


Tanda g`altagidagi ipning muvofiq uzunligi Tanda g`altagiga sig`ishi mumkin bo`lgan uzunlikdan katta bo`lmasligi kerak va quyidagi shart bajarilishi kerak :

$$L_{dav.g'al}^{yuqori} > L_{dav.g'al}^{Muvof} [m] \quad 58623,829 > 53568,924$$

G) Tanda g`altagidagi ipning muvofiq og`irligi.

$$G_{Muvof} = \frac{L_{dav.g'al}^{Muvof} \cdot M_g \cdot T_T}{10^6} = \frac{53568,924 \cdot 470 \cdot 20}{10^6} = 503,547[kg]$$

3. Konussimon ip o`ramining hisobi.



H – o`ram bandligi-150 mm

R_1 – patronning katta radiusi-100 mm

R_2 – patronning kichik radiusi-32mm

r_1 – patronning katta radiusi-125 mm

r_2 – patronning kichik radiusi-15 mm

1. Konussimon o`ramdagi ipning xajmini hisoblash.

$$V = \frac{\pi \cdot H}{3} [(R^2 + R_1^2 + R \cdot R_1) - (r^2 + r_1^2 + r \cdot r_1)]$$

$$= \frac{3,14 \cdot 15}{3} [(12,5^2 + 10^2 + 12,5 \cdot 10) - (3,2^2 + 1,5^2 + 3,2 \cdot 1,5)] = 5714,172 \text{ sm}^3$$

2. O`ramdagi ip og`irligini hisoblash.

$$G = V \cdot \gamma = 5714,172 \cdot 0,55 = 3142,794 \text{ gr}$$

γ -o`ramdagi ipning nisbiy o`ralish zichligi, gr/sm³

γ -ni texnologik jarayonda qabul qilingan qiymatini aniqlanadi.

3. Konussimon o`ramga o`ralish mumkin bo`lgan eng katta uzunligi.

$$L_{kon.o'r}^{yuqori} = \frac{G \cdot 1000}{T_T} = \frac{3142,794 \cdot 1000}{20} = 157139,7[m]$$

T_T, T_A – tanda arqoq ipining chiziqli zichligi, teks

Agarda tanda ipini Tandalashda uzlikli Tandalash qo`llansa, u xolda konussimon ip o`ramidagi ipning uzunligini Tanda g`altagidagi ipning foydali uzunligiga bog`liq xolda o`raladi.

4. Konussimon ip o`ramidan olinadigan Tanda g`altaklarini sonini hisoblash.

$$K_d^1 = \frac{L_{kon.o`r}^{yuqori}}{L_{dav.G}^{yuqori}} = \frac{157139,7}{58623.829} = 2,68 \approx 2dona$$

Olingan K_d^1 qimaytig`i kichik tomonga kelasi butun songa butunlaymiz va K_{dav} bilan belgilaymiz.

5. Konussimon ip o`ramiga o`raladigan ipning kerakli foydali uzunligini hisoblash.

$$L_{kon.o`ram}^{Muvof} = L_{d.G}^{Muvof} \cdot K_{dav} + (200/600)[m]$$

$$= 58623,829 \cdot 2 + 200 = 117447,658[m]$$

$$157139,7 > 117447.658$$

Bu yerda : (200/600) m – Konussimon ip o`ramidagi ipning zaxira uzunligi (uzlukli Tandalash uchun)

$$G_{xak} = \frac{L_{kon.o`r}^{Muvof} \cdot T_T}{1000} = \frac{117447.658 \cdot 20}{1000} = 2348,953$$

4. Arqoq ipi uchun

Konissimon ip o`ramiga o`ralgan arqoq ipining kerakli foydali unumdorligini hisoblash; Tanda va arqoq ipimizning chiziqliy zichligi bir hilligi uchun konissimon ipi o`rami hisobi arqoq uchun ham bir hil

5. Ip o`ramlarini hisobini jamlash jadvali

16- jadval

№	Ip o`rami turlari	O`ralish nisbiy zichligi gr/sm ³	O`ramni hisoblash xajmi sm <sup>3</sup>	O`ramdagi o`ralishi mumkin bo`lgan ip eng katta uzunligi metr	O`ramdagi ipning muvofiq uzunligi metr	O`ramdagi ipning xaqiqiy og`irligi kg
1	Tanda	0,55	100193,475	58623,829	53568,924	503,547

	g`altagi					
2	To`quv g`altagi	0,55	1081,416	9201,811	8832,206	574,298
3	Konussimon ip o`ram Tanda ip	0,55	5714,172	157139,7	117447,658	2348,953
4	Arqoq ip				117447,658	2348,953

3.8. To`quv korxonalarida chiqadigan chiqindilarni hisoblash

CHiqindilar–to`quv ishlab chiqarishda ip yoki tolalarni yo`qotishdir. Ip uzilganda ulash uchun, o`ramlarni mashinaga o`rnatish uchun sarf qilinadigan iplar chiqindiga chiqib ketadi. CHiqindilar miqdori o`ramdagi ip uzunligiga, ip sifatiga, dastgoxlar xolatiga ishchi malakasiga va xom – ashyoni saqlanish sharoitiga bog`liq.

CHiqindilarni hisoblash

1 Tandalash jarayonida chiqadigan chiqindilar hisobi

$$U_{dav} = \frac{l_1 + l_2 \cdot K + l_4}{L_{kon.o`ram}^{Muvof}} \cdot 100[\%] = \frac{2 + 1 \cdot 1 + 200}{117447,658} \cdot 100 = 0,172[\%]$$

$l_1=1.0/2.0$ m – o`ramlarni almashtirish jarayonida ulash uchun sarf bo`ladigan ip uzunligi.

$l_2=1.0/2.0$ m – uzilgan ipni ulash uchun sarflanadigan ip uzunligi

$l_3=0.5 \cdot L_{ram}$ – Tanda ramkasi qatoridan olib o`tish uchun sarflanadigan ip uzunligi, m.

$l_4=200/600$ m – uzlukli tandalashda babinadagi ortiqcha zoxiradagi ipning uzunligi.

$L_{kon.o`ram}^{Muvof}$  - konussimon ip o`ramining muvofiq uzunligi, m.

Agarda uzluksiz tandalash usuli qo`llanganda

$L_3=0$ va $L_4=0$ teng deb olinadi.

K – 1 ta konussimon ip o`rmiga to`g`ri keladigan iplarni uzilishlar soni.

$$K = \frac{L_{kon.o`ram}^{Muvof} \cdot Q}{10^6} = \frac{117447,658}{10^6} = 0,117 \approx 1 \left[ \frac{uzuq}{1o`ram} \right]$$

Q-10⁶ metr ga to`g`ri keladigan iplarni uzilishlari soni. (Tandalash, parametriga qarang)

2. Oxorlash jarayonidagi chiqadigan chiqindilar hisobi.

$$U_{oxor} = \frac{l_1 + l_2 \cdot \left(\frac{K_d - 1}{K_d} \right)}{L_{dav.g`al}^{Muvof}} \cdot 100[\%] = \frac{40 + 18 \cdot \left(\frac{6-1}{6} \right)}{117447,658} \cdot 100 = 0,41[\%]$$

$l_1 = 33/42m$ chiqindiga chiqadigan yelimlangan (oxorlangan ip uchlari uzunligi)

$l_2 = 15/20m$ Tanda g`altagidagida qoladigan yumshoq qoldiq iplarning uzunligi.

$K_{g.G}$ – partiyadagi Tanda g`altaklari soni.

$L_{d.g}^{Muvof}$ - Tanda g`altagiga o`ralgan ipning muvofiq uzunligi, m.

3. O`tkazish va ulash jarayonida chiqadigan chiqindilarni hisobi.

To`quv korxonalarida tanda iplarini o`tkazish va ulash operatsiyalar amalga oshiriladi. Tanda iplarini to`quv dastgoxining yechiluvchi qismlaridan (tanda kuzatgich, gula ko`zlaridan va berdotig`larida) qo`lda o`tkaziladi, buni o`tkazish deyiladi.

To`quv dastgoxida tanda ipi tugagan tanda ipining oxiriga yangi tayyorlangan to`quv g`altagidagi iplarni bog`lash bu ulash deyiladi.

O`tkazish asosan mexanik yoki yarim mexanik o`tkazish dastgoxlarida amalga oshiriladi. Ulash operatsiyasi esa qo`zgalmas yoki qo`zg`aluvchi ulash mashinalari yordamida amalga oshiriladi. To`quv korxonalarida 10/15 iplar o`tkaziladi, 85/90 % iplar esa ulanadi.

a) Qo`lda ip o`tkazish dastgoxida chiqadigan chiqindini hisobi.

$$U_{q.o`t} = \frac{l_{sm}}{L_{to`q.g`al}^{Muvof}} \cdot 100[\%] = \frac{0,5}{8922,969} \cdot 100 = 0,005[\%]$$

$L_{to`q.g`al}^{Muvof}$ - to`quv g`altagidagi ipning muvofiq uzunligi, m

$l_{o`t}$  -qo`lda ip o`tkazish jarayonida chiqadigan chiqindi ipi uzunligi.

b) Harakatlanuvchi ulash mashinalarida tanda ipini ulash jarayonida chiqadigan chiqindi miqdorini aniqlash.

$$U_{ul.mash} = \frac{l_1 + l_2 + l_3}{L_{to'q.g'al}^{Muvoft}} \cdot 100[\%] = \frac{0,2 + 0,3 + 1}{8922.969} \cdot 100 = 0,016[\%]$$

L_1 -0.2m – tanda ipi mashinaga taxtlashda sarflanadigan ip uzunliklari.

L_2 -0.3m – ulangandan so`ng eski tanda ipini qirqib tanlanadigan ip uzunligi.

L_3 -1.0/1.5m – ulangandan so`ng yangi tayyorlangan tanda ipidan qirqib tashlanadigan ip uzunligi va tugunlarni dastgox qismlaridan olib utish uchun sarf bo`ladigan uzunlik.

O`tkazish va ulash jarayonida chiqadigan umumiy chiqindilar miqdori.

$$U_{o'tk} = \frac{U_{q.o't} \cdot P_1 + U_{ul.mash} \cdot P_2}{100} [\%] = \frac{0,005 \cdot 15 + 0,016 \cdot 85}{100} = 0,014[\%]$$

P_1 —qo`lda o`tkaziladigan tanda iplari foizi.

P_2 —harakatlanuvchi ulash mashinalari yordamida ulanadigan tanda iplarini foizi.

4. To`quv tsexida chiqadigan chiqindilarni hisobi.

a) To`quv dastgoxida tanda ipidan chiqadigan chiqindilarni aniqlash.

$$U_{tanda} = \frac{l_1 + l_2}{L_{to'q.g'al}^{Muvoft} \cdot l_{o'tk}} \cdot 100[\%] = \frac{2 + 0,5}{8922,969 \cdot 0,55} \cdot 100 = 0,05[\%]$$

l_1 – 2.0/3.0m - to`quv g`altagida ishlatilmay qolgan ip uzunligi.

l_2 – 0.5/1.0m -to`quv dastgoxini qayta taxtlash uchun va qayta ishlash uchun sarflanadigan tanda ipi uzunligi.

$l_{o'tk}$ - o`tkazish jarayonida yo`qotiladigan ip uzunligi.

$l_1; l_2 \cdot l_{o'tk}$ - qiymatlarini, o`ramlarni hisoblashda olingan qiymatlariga bog`liq xolda olinadi. (O`ram hisobiga qarang)

b) To`quv dastgoxida arqoq ipidan chiqadigan chiqindilarni aniqlash.

$$U_{arqoq} = \frac{l_1 + l_2 + l_3 \cdot K + l_4}{L_{arqoqo'ram}^{Muvoft}} \cdot 100[\%] = \frac{1,5 + 2,0 + 0,5 \cdot 588 + 93,958}{117447,658} \cdot 100 = 0,333[\%]$$

$l_1 = 1,5/3,0$ m – arqoq ipi o`ramini to`quv dastgoxiga o`rnatishda sarf bo`ladigan uzunligi.

$l_2 = 2,0/5,0$ m – arqoq ip o`ramida qoladigan ip uzunligi.

$l_3 = 0,5/1,5 \text{ m}$ – arqoq ipi uzilganda, uni ulash uchun sarf bo`ladigan ip uzunligi.

$l_4 = 0,08 \cdot L_{arqoqo`ram}^{Muvof}$  -to`qimadagi nuqsonni yo`qotish uchun sarf bo`ladigan ip uzunligi.

$$l_4 = \frac{L_{arqoqo`ram}^{Muvof} \cdot 0,08}{100} = \frac{117447,658 \cdot 0,08}{100} = 93,958[m]$$

$K - 1$ ta arqoq ip o`ramiga to`g`ri keladigan uzilishlar soni.

$$K = \frac{L_{arqoqo`ram}^{Muvof} \cdot Q_{arq}}{1000} = \frac{117447,658 \cdot 5}{1000} = 587,238 \approx 588 \left[ \frac{uzul}{1-o`ram} \right]$$

$Q_{ar} - 10^6$ metrغا to`g`ri keladigan arqoq ipining uzilishlar soni. (to`quv dastgoxini parametrga qarang).

$L_{arqoqo`ram}^{Muvof}$  - arqoq ip o`ramiga o`ralishi mumkin bo`lgan arqoq ipining uzunligi, m.

To`qimachilik korxonasining har bir bo`limidan chiqadigan chiqindilarni quyidagi jadvalga kiritib, korxonadan chiqadigan chiqindilarni umumiy % ni aniqlaymiz.

CHiqindi jadvali.

17-jadval

№	O`tishlar	CHiqindi miqdori [%]	
		Tanda bo`yicha [%]	arqoq bo`yicha [%]
1	Tandalash bo`limi	0,172	
2	Oxorlash bo`limi	0,41	
3	O`tkazish/ulash bo`limi	0,014	
4	To`quvchilik bo`limi	0,05	0,333
5	Jami :	0,646	0,333

3.9. 100 metr to`qima to`qish uchun sarflanadigan tanda va arqoq ipining chiqindilarni hisobga olgan xoldagi olgan og`irligini hisobi.

a) 100 metr to`qima to`qish uchun sarflanadigan tanda ipining chiqindilarni hisobga olgan xoldagi og`irligini hisoblash.

$$M_T = \frac{M_T^1}{1 - \frac{\sum U_{tanda}}{100}} = \frac{7.096}{1 - \frac{0.646}{100}} = 7.142[kg]$$

M_T^1 - 100 metr to`qimadagi tanda ipini yelimlanishini hisobga olmagandagi og`irligi. (To`qimani taxtlash hisobiga qarang).

b) 100 metr to`qima to`qish uchun sarflanadigan arqoq ipining chiqindilarini hisobga olgan xoldagi arqoq ipining og`irligi.

$$M_{arq} = \frac{M_a^1}{1 - \frac{\sum U_{arq}}{100}} = \frac{6.579}{1 - \frac{0.333}{100}} = 6.6[kg]$$

M_a^1 - 100 metr to`qimadagi arqoq iplarini og`irligi, kg (to`qimani taxtlashda hisoblangan).

3.10. Tandalash mashinasining ish unumdorligi hisobi.

Tanlangan mashina va dastgohlarni tezligi va ish unumdorligi hisobi.

18-jadval

№	Mashina va dastgoxlarni nomi	Mashina va dastgoxlarni tezligi	M.i.K	F.v.K
1.	Tandalash mashinasi ZC-R	1200	0.97	0.5
2.	Ohorlash mashinasi FILATEK	500	0.95	0.85
3.	Ulash mashinasi TAMATIK	600	0.93	0.3
4.	O`tkazish dastgohi WARDLINK Staybli	20-140	-	0.85
5.	To`quv dastgohi TAYOTA	500	0.96	0.86

6.	To`qima sifati nazorati «Stema-201» .	70	0.96	0.86
----	---------------------------------------	----	------	------

a) Tandalash mashinasining nazariy ish unumdorligi hisobi

$$A_{naza} = \frac{v \cdot t \cdot T_T \cdot M_g}{10^6} = \frac{1200 \cdot 60 \cdot 20 \cdot 470}{10^6} = 225,6$$

bu yerda:

v- tandalash mashinasi tezligi.

t- ajratilgan vaqt, 60 daqiqa

T_T- tandalanayotgan ipning chiziqli zichligi

M_g- tanda g`altagidagi iplar soni

b) tandalash mashinasining xaqiqiy ish unumdorligi hisobi

$$c) A_{xaq} = A_{naza} \cdot FVK = 225,6 \cdot 0,5 = 112,8$$

2.Ohorlash mashinasining ish unumdorligi hisobi.

a) Ohorlash mashinasining nazariy ish unumdorligi

$$A_{naza} = \frac{v \cdot t \cdot T_T \cdot n_T}{10^6} = \frac{126,877 \cdot 60 \cdot 20 \cdot 3284}{10^6} = 499,996$$

Bu yerda: n_T –tanda iplprining umumiy soni

b) Oharlash mashinasining haqiqiy ish unumdorligi

$$A_{xaq} = A_{naza} \cdot FVK = 499,996 \cdot 0,86 = 429.996$$

3.O`tkazish dastgoxining ish unumdorligi hisobi

a) Asosiy mashina ish vaqtining hisobi

$$T_O = \frac{3,5 \cdot n_T}{100} = \frac{3,5 \cdot 3284}{100} = 114,94$$

b) bir smenadagi dastgoxning ishlab chiqarish xajmi

$$H_O = \frac{(T_{sm} - T_b)}{T_O + T_{vi}} \cdot G_{t.g}^{xaq} = \frac{(480 - 19)}{114,94 + 7,5} \cdot 574,289 = 2162,26$$

bu yerda: T_{sm} = 480daq ya'ni: 8 soatga teng qilib olinadi

T_b –mashinani ishga tushirish

$T_{v,i}$ – mashinani moylash va tozalashga ketadigan vaqt.

v) 1 soatdagi dastgoxni ishlab chiqarish xajmi

$$H_6 = \frac{H_o}{8} = \frac{2162,26}{8} = 270,282$$

4. Ulash mashinasining ish unumdorligi hisobi.

a) Ulash mashinasining nazariy ish unumdorligi.

$$A_{naza} = \frac{v \cdot 60}{n_T} \cdot G_{T.g}^{xaq} = \frac{600 \cdot 60}{3284} \cdot 574,289 = 6295,494$$

bu yerda: $G_{T.g}^{xaq}$ - to'quv g'altagining xaqiqiy og'irligi

v - ulash mashinasini tezligi.

b) ulash mashinasining xaqiqiy ish unumdorligi

$$A_{xaq} = A_{naza} \cdot FVK = 6295,494 \cdot 0,3 = 2788,648$$

5. To'quv dastgoxining ish unumdorligi hisobi.

Nazariy ish unumdorlik

a) metrda

$$A_{T1} = \frac{n \cdot 60 \cdot K_p}{R_a \cdot 10} = \frac{500 \cdot 60 \cdot 1}{198 \cdot 10} = 15,151 \frac{m}{s}$$

bu yerda: n - to'quv dastgohi bosh vali aylanishlar soni

K_p - bir vaqtning o'zida ishlab chiqarilayotgan to'qima soni

R_a - to'qimani arqoq bo'yicha zichligi

b) metr kvadratda

$$A_{T2} = \frac{n \cdot 60 \cdot K_p \cdot B_x}{R_a \cdot 10} = \frac{500 \cdot 60 \cdot 1 \cdot 1,323}{198 \cdot 10} = 20,045 \frac{m^2}{s}$$

bu yerda: B_x - ham to'qima kengligi

v) Arqoq soatda

$$A_{T3} = n \cdot 60 \cdot K_p = 500 \cdot 60 \cdot 1 = 30000$$

g) ming arqoq soatda

$$A_{T4} = n \cdot 60 \cdot K_p \cdot B_x = 500 \cdot 60 \cdot 1 \cdot 1,323 = 39690 \frac{m}{ar.soat}$$

6. To'quv dastgoxini xaqiqiy ish unumdorligi hisobi

a) metrda $A_m = A_{T1} \cdot FVK = 15,151 \cdot 0,86 = 13,029$

b) metr² da

$$A_{m^2} = A_{T2} \cdot FVK = 20,045 \cdot 0,86 = 17,238$$

v) arqoq soatda

$$A_{m^3} = A_{T3} \cdot FVK = 30000 \cdot 0,86 = 25800$$

g) ming arqoq soatda

$$A_{m^4} = A_{T4} \cdot FVK = 39690 \cdot 0,86 = 34113,4$$

7.“STEMA-201” patok liniyasining ish unumdorligi hisobi .

$$A_m = v \cdot 60 \cdot FVK = 70 \cdot 60 \cdot 0,86 = 3612$$

bu yerda: v-potok liniya tezligi , $v = 7 \div 80$, qabul qildim. $v=70\text{m/min.}$

To'quvchilik korxonasining ishlab chiqarish dasturi.

19-jadval

Mitkal	1	To`qimaning nomi
36	2	Artikuli
Tayota	3	Dastgoh turi
132.396	4	Xom to`qima kengligi sm
248	5	Tanda bo`yicha
225	6	Arqoq bo`yicha
320	7	Dastgox soni
3	8	Smenalar soni
8	9	Smena davomiyligi
308	10	1 yildagi ish kunlar soni
7392	11	1 yildagi ish soatlar soni
2365,440	12	Taxtlangan dastgoxlar soati
0,86	13	Dastgoxning ishlash koefitsenti
2034,278	14	Ishlayotgan dastgoxlar soati
13,029	15	m/s
17,812	16	metr ² /soat
25800	17	arqoq/ soat
35268,6	18	metr arqoq/soat
26504,608	19	1000 m
36234,559	20	1000 metr ²
52484.372	21	1 mln arqoq
71745,137	22	1mln arqoq metr
7,096	23	Tanda iplari
6,579	24	Arqoq iplari
13,675	25	Jami
1880,766	26	Tanda iplari
1743,738	27	Arqoq iplari
3624,504	28	Jami
254,432	29	Tanda
235,895	30	Arqoq
490,327	31	Jami
3585,58	32	Soatli topshiriq

O`tish jarayonlari bo`yicha yarim mahsulotlarning chiqish foizi hisobi

20-jadval

№	O`tish jarayonlari	CHiqindi miqdori (%)	Yarim mahsulotning chiqim (%)
1.	Tandalash bo`limi	0,172	99.828
2.	Ohorlash bo`limi	0.041	99.959
3.	Ulash o`tkazish bo`limi	0,014	99.986
4.	To`quvchilik bo`limi	0.05	99.95

